Ushbu maqolada, asosan, 10 va 11-sinf ona tili darsliklaridagi mavzularga e'tibor qaratiladi. Shuning bilan birgalikda ularning o'quvchilar uchun qulayliklari va bugungi kun talablariga qay darajada mos tushishi shunidek yoshlarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, kommunikativlik (muloqotga kirishish), axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilganligi haqida so'z boradi.

Bugungi kunda ilm-fan va ta'limga katta ahamiyat berilmoqda shu jumladan yangi darsliklar va innovatsion texnologiyalarga asoslangan metodlar ishlab chiqilmoqda. Albatta, bularning barchasi yosh avlodni yanada bilimga chanqoq qilish va ulardagi tanqidiy fikrlashni oshirishga qaratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, endi o'quvchilar nafaqat oliy ta'limga, balki hayotga ko'proq tayyorlanadi, har bir ishni o'ylab o'zi bilan o'zi muhokama qila oladigan darajaga yetishadi. Buni birgina misolini 10 va 11-sinf ona tili darsliklarida ko'rishimiz mumkin. 10-sinf darsligidagi 36-mavzu 1 "Zamon qo'shimchalarining qo'llanilishi" mavzusini oladigan bo'lsak, bu dars orqali o'quvchi zamonga aloqador bo'lgan barcha ma'lumotlarni, ularni qay tarzda qo'llanilishini, boshqa qo'shimchalar bilan sinonimlik hosil qilish yoki qilmasligini va shu kabi mavzu uchun ahamiyatli bo'lgan muhim ma'lumotlarni o'zlashtirishi va amaliyotda qo'llay bilishi kerak. Buning uchun, albatta, matn ustida ishlash kerak. Ushbu 10 va 11- darsliklarda endi matn ustida ishlash uchun oddiy matn berish bilangina cheklanilmagan ya'ni o'quvchi ma'lum keltirilgan rasm orqali zamon qo'shimchalaridan to'g'ri foydalangan holda o'zi mustaqil matn tuzadi. Eng ahamiyatli joyi shundaki, rasm ham jamiyatdagi muhim ishlarni va o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Yoki bo'lmasam turli xil ixtirolar va global muammolar haqida tayyor matn beriladi o'quvchi ma'lumot o'rnida undan bahramand bo'ladi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, o'quvchi ham oliy ta'limga tayyorlanadi ham hamma sohadan teng xabardor bo'lib ketadi. Ushbu darsliklardan asl ko'zlangan maqsad ham aynan shundan iborat. Quyida o'sha rasmlardan biri ham misol sifatida keltirilgan.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Yangi nashr Toshkent-2022
36-dars



Ma'lumot o'rnida shuni aytib o'tish joizki, milliy o'quv dasturlarining oldingi standartdan farqi- XXI asrda o'quvchu muvaffaqiyatga erishishi uchun kerak bo'lgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsad qilib olinadi. Bular- tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kommunikativlik, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish. Ushbu darsliklarni ishlab chiqishdan oldin bizga qanday avlod kerak? Degan savol o'rtaga qo'yilgan. Javob sifatida bizga ilg'or fikrlaydigan, qat'iyatli, o'z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslar kerak. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o'zgartira oladi. Aynan milliy o'quv dasturiga XXI asr ko'nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilinadi.

Shu o'rinda metodikachi? Ushbu darsliklar orqali metodika qanday o'zgaradi? Degan savol vujudga kelishi tabiiy hol. 2017 yilgi standartlar ko'proq yod olishga asoslangan edi. Ma'ruza metodi ustun edi, ya'ni o'qituvchi gapiradi, o'quvchi tinglaydi. 11 yil tinglab o'rganagan o'quvchi 12-yilda ham kimnidit tinglagisi keladi. Unda qaror qabul qilish ko'nikmasi rivojlanmagan bo'ladi. Natijada bu o'quvchi mustaqil harakat qila olamaydi. Yangi o'quv dasturlarda shuni o'zgartirishga harakat qilinadi. Masalan, Finlandiya tajribasida "fenomenal ta'lim" degan tushuncha mavjud. Bu- yon atrofda sodir bo'layotgan, bola eshitayotgan, ko'rib turgan voqea-hodisalar asosida o'qitish. Xorij tajribasida "Inquiry-based learning" (o'quvchilar oldiga muammolarni qo'yilishi va o'quvchilar bu muammolarni hal qilish jarayonida o'rganilishlarga asoslangan ta'lim) tushunchasi mavjud. 10 va 11-sinf o'quv

dasturida o'quvchilar aynan yon-atrofdagi bo'layotgan voqealarni kuzatish, savollar qo'yish va savollarga javob izlash orqali o'rganish metodikasini singdirishga mo'ljallangan.

Shunidek, o'quvchilarni PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro dasturlari imtihonlariga tayyorlash, tadqiqot natijalariga ko'ra zarur xulosalar chiqarish, ta'lim mazmuni va jarayoniga kerakli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Shu bois Milliy o'quv dasturi asosida yangilanayotgan darsliklarga xalqaro baholash dasturlarining baholash mezonlari va mexanizmlariga javob beradigan, o'quvchilarni ana shu dasturlarning imtihonlariga tayyorlashga xizmat qiladigan materiallar ham kiritilyapti. Masalan, "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidan o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan, PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari talablariga mos keladigan matnlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlar joy olgan. Bunday topshiriqlar vositasida o'quvchida matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Shuning bilan birgalikda bu darsliklarda o'quvchilarni loyihalar asosida o'qitish keng yo'lga qo'yilgan. Ya'ni o'quvchilar nimanidir bajarib ko'rishadi, yasab ko'rishadi. Loyihalar ustida ishlayotganda jamoa bo'lib ishlashni o'rganishadi. Jamoa bo'lib ishlashda esa yaxshi bir lider, menejer, yaxshi suhbatdosh, yaxshi journalist, yaxshi rassom kashf qilinishi mumkin.

Masalan, buni nafaqat ona tili misolida, balki tabiiy fanlardagi "STEM mashg'ulotlari" da ham yaqqol ko'rish mumkin. Bu mashg'ulotlar bir necha fanlarni qamrab oladi. Masalan, "suv" mavzusida o'quvchi suvni geografiya, biologiya, fizika nuqtayi nazaridan o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi
2. to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son
3. farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O'zbekiston Respublikasi
4. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
5. Umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta'lim muhiti. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent2020.
6. Н. М. Воскресенская. Опыт разработки стандартов образования в зарубежных странах // Вопросы образования (Россия). – 2004. – №3.

7. Curriculum: National and State Standards. Common Core State Standards Initiative // Elektron manba: <https://www.educationworld.com/standards/>
8. Zamonaviy darsliklar qanday bo'lishi kerak? - // Elektron manba. O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti: <http://uza.uz/posts/208815>
9. Milliy o'quv dasturi loyihalari, loyiha bo'yicha taqdimotlar. - // Elektron manba.
10. Respublika ta'lim markazi rasmiy telegram kanali: https://t.me/edurtm_uz



INNOVATIVE
WORLD



YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA AYOLLAR TASVIRIDAGI TADRIJIYLIK.

Mamashukurova Niginaxon Xoljo'ra qizi

Filologiya fakulteti 4-kurs talabasi

KALIT SO'ZLAR

ayol ruhiyati, hozirgi adabiy jarayon, ayol hissiyotlari ifodasi, ayol poetikasi bilan bog'liq tashbeh va timsollar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatida ifodalanayotgan ayol poetik timsoli va uning ifodasidagi tadrijiylik haqida so'z boradi. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlash hamma zamon she'riyatida ham muhim o'rin tutgan. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy

O'zbek adabiyoti har doim o'zining g'oyaviy mazmunining chuqurligi, hayot mazmuni masalalarini hal qilish uchun tinimsiz intilishi, insonga nisbatan insonparvarlik munosabati va uni tasvirlashning to'g'riligi bilan ajralib turadi. Qalam ahli o'zbek she'riyatida ayol obrazida, uning qalb kechinmalari orqali xalqimizning eng yaxshi xususiyatlarini ochib berishga harakat qildilar. Ma'lumki, turli zamonlar davomida ayollar turli hodisalarni boshidan o'tkazganlar, jumladan, o'tgan asrdagi ayollarga zulm bunga yorqin misol bo'la oladi. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlash hamma zamon she'riyatida ham muhim o'rin tutgan. Ayol psixologiyasini tahliliy o'rganish insonning ma'naviy olami, dunyoqarashi, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim. Adabiy jarayon doim ijtimoiy muhit, adabiy-ma'naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Zero, bashariyatning ongu tafakkuri, ruhiyatidagi yangilanishlar, asosan, adabiyot va san'atda o'z aksini topadi. Bunda adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangi nigoh bilan qarash, ayol ruhiyatiga oid muammolarni chuqurroq anglash yo'lidan bordi. Badiiy adabiyotda ayolning ruhiy dramalarini to'laqonli aks ettirishda jahon nasrining ilg'or ijodiy tendensiyalariga xos jihatlar namoyon bo'lmoqda. Adabiy jarayonda ayolning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini, uning sohir tuyg'ulari, murakkab ruhiy olamini tasvirlashda falsafiy-psixologik, ramziy-majoziy obrazlilik ustunlik qilmoqda. G'arb va Sharq she'riyatining eng ko'hna davrlaridan boshlab yaratilgan asarlarda ayolning oilada tutgan o'rnini, uning go'zallik va muhabbat timsoli ekanligi xususida ko'plab she'rlar yozilgan. She'riyat yaralibdiki, shoirning ilhomini keltirgan, hayratini oshirgan ham ayol va uning muhabbati hisoblangan. Hamma zamonlarda ham shoirlar ayollarni madh etgan, ularning jamiyatdagi turgan o'rniga alohida to'xtatilib, o'zlarining poetik xususiyatlaridan kelib chiqib, o'z ijodiyotiga go'zal tashbehtar bilan ayollarni aks ettirgan. Ayol

go'zallik timsoli bo'lishi bilan bir qatorda, sabr- matonat, mehr-muhabbat timsoli hisoblanadi. Shunday ekan, bir shoir ayol ramzi orqali go'zallikni ifodalasa, yana bir shoir ayol zotini sabr va matonat kuychisi deb alqaydi. O'tgan asrning avvalgi yillarida o'zbek adabiy jarayonida ayol, asosan, sabr va matonat, iroda va mehr ramzi orqali shoirlar ijodida muhim ahamiyat kasb etgan. Shunday shoirlardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodidagi "Ona" she'riga e'tiborimizni qaratsak,

Parcha go'sht erdik tug'ulgan vaqtimizda,
Onamizning bag'ri o'ldi taxtimizda.

Shoir aytadiki, tug'ilgan paytimiz, bir parcha go'shtdan boshqa narsa emas edik, bizning ulg'aygan, sarbasta qomatimiz uchun onamizning bag'ri, uning sarvdek qomati fido bo'lgan. Onalar farzandlari uchun, o'zida bo'lgan hamma narsani ikkiga bo'ladi, immuniteti, qora sochlari, baquvvat beli, ajinsiz yuzlari, qizil ranglaridan, farzand bo'lib dunyoga kelishi uchun ayamaydi. Hamma ayollar shunday, fidokor bo'lish uchun, qurbon bo'lish uchun yerga tushirilgandek go'yo, ulardagi sabr, matonat, mehr qayerdan kelgan ekan!?

O'zbek she'riyatida shunday iste'dodi qoniga singib ketgan shoirlar ijod qilganki, ularga qoyil qolmasdan iloji yo'q. Shunday iste'dodga to'la shoirlardan biri Erkin Vohidov hisoblanadi. Bilamizki, she'r shoir yuragidan chiqqan hayotiy his- tuyg'ularni ifodalab, o'z o'quvchisini ruhiyati bilan yaqinlashadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim yozgandi: "Shoir o'zi yonmasa, boshqalarni yondira olmaydi, qalb hislarida otash bo'lmasa, boshqa qablarga harorat berolmaydi. Bu sehrli otashsiz har qanday she'riy jimjimalardan badiiy vositalardan, mahoratdan naf yo'q."² Erkin Vohidov ham hamma zamonlarda ijod qilgan shoirlar kabi o'z she'rlarida Allohning tengsiz ne'mati va o'jizasi bo'lgan, nafis maxluqoti hisoblangan ayollarni juda go'zal va kuchli badiiyat bilan ifoda etgan va alqagan, she'riyatida nafis yo'llar bilan gavdalandirgan. Gapimizning yorqin misoli sifatida "Qaro qoshing..." deb boshlanuvchi she'rini tahlil markaziga qo'ysak,

Qaro qoshing, qalam qoshing,

Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlima qasd qayrab —

Qilich qotil qaroshing, qiz.

Alliteratsiya asosiga qurilgan mazkur she'r, shoirning naqadar favqulodda iste'dodli ekanini yana bir bor isbot qiladi. Shoir shunchaki badiiy san'at uchungina bu she'rni yozmagan. Asosiy mavzusi hisoblangan bir go'zalning she'rga mahorat bilan chizilgan surati desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tasvir nihoyatda nafislik bilan ifoda etilgan, qoshining qora va qalamdek bo'lgani o'zi qasd qilishga shay turgani bilan o'lchansa, yorning qarashi esa qotillikning o'zi, ya'niki, oshiq ma'shuqaning ayyorona nazari bilan bu dunyoni tark etishga majbur bo'lishi bilan ifoda qilingan.

² Bahodir Karim. Adabiy fikr javhari. www.kh-davron.uz

Qafasda qalb qushin qiynab,
Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.
Qarab qo'ygil qiyo,
Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.

Lirik qahramonning qalbini xuddiki tutqundagi bechora qush misoli qiynayotgan yorga oshiq iltimos qilyapti, menga bir qaraki, qalbimni gullatsin, o'sha quyosh yanglig' nurli yuzing qalbimni qizdirsin deya so'ramoqda. Bu she'rdan mumtoz an'anaviylik ham ko'rinib turibdi. Ma'lumki, mumtoz adabiyotda yorning ko'zi-yu qoshi, qarashi, umuman olganda, butun go'zalligini shoirlar madh etgan. Erkin Vohidov ham mazkur she'rga boy va o'ziga xos klassik she'riyatimizdan andoza olgan desak xato bo'lmaydi. Erkin Vohidov tabiatan kuzatuvchan inson bo'lgani she'rlaridan sezilib turadi. Singlisiga atab yozgan "Qizaloq" she'rida ham buni ko'rishimiz mumkin.

Qo'g'irchoqdan bir zum nari ketmasdan
Erkalar, bag'riga bosar qizaloq.
Hayot nima - hali idrok etmasdan,
Go'dakligiga ham aqli yetmasdan,
Ona bo'laman deb o'sar qizaloq.

Ayol psixologiyasini kuzatgan shoir singlisining hali hayot nimalardan iborat ekanini bilmasa ham, qo'g'irchoqni bag'riga bosib erkalashini ko'rib ona bo'lishga yoshligidanoq havas qilishini payqab qoladi. Keyingi bandlarida qizaloqning ko'ngliga onalik mehr shafqatini kim solgan deya o'z -o'zini savolga tutadi. Shoir aytadiki, onalikda ham mushfiqlik bor, mashaqqat bor deya hayot zahmatlari ko'proq onaning yelkasiga tushishini tushuntirib o'tib ketadi.

Bilamizki, ayol- muhabbatning ifodasi, ayol- hayotning ifodasi, ayol- bu olamdagi eng go'zal xilqat deya tilga olinadi, xalqimiz orasida hatto "Ayol borki, olam munavvar" tarzidagi o'xshatishlar ham keng tarqalgan. Bu ta'rif esa, foniy dunyoning go'zalligi, nurli ekani ayolning muhabbati va ayolga bo'lgan muhabbat bilan o'lchanadi. Xurshid Davron esa bu haqiqatni o'z she'rlarida kuylagan. Shoir demoqchiki, hayotni sevish ayolni sevish bilandir. Agarki, hayot juda go'zal bo'lsa-yu, yoningda sen sevguvchi va seni sevguvchi bir xilqat bo'lmasa, hayotni go'zal ko'ra olmaysan, ki "Bu dunyoda sevish, sevilish soatlari bor" ekan, ayolni sevish va hayotni go'zal yashab o'tishni istaydi.

Derazangni chertganida yomg'iru shamol,
Meni yodga olurmisan, ey yolg'iz ayol.
Uzun tunlar qiynaganda cheki yo'q xayol,
Meni yodga olurmisan, ey go'zal ayol?!

Mazkur she'rdan yolg'iz ayolga nido qiladiki, qiynalgan kezlarida lirik qahramonni yodga olishini so'raydi. Ayol baribir go'zal, u yolg'izmi, yoki yo'q. hamma ayollar birdek go'zal, faqat uni ko'ra bilish va yanada go'zallikka moyil qilish erkaklarning ularning baxtli qila olishida. Tabiatan ayollar hissiyotga

berilgan bo'ladi, shunga qaramasdan, juda ham matonatli va irodali, kezi kelganda jasurlikka ham timsol bo'la oladi. Dunyoda beva qolib, yolg'iz boshiga farzandlari uchun ham moddiy ta'minotchi, ham ma'naviy ko'makdosh, ham mehribon ona, ham qattiqqo'l rahbar kabi bir qator rollarni bir o'zi o'ynaydi. Shunday yolg'iz ayollar kunduzi bilan o'zini juda kuchli ko'rsatsalar-da, kechalari hech kimga ko'rsatmaygina yig'lab oladi, tongda esa yana kuchli ona rolida davom etadilar. Ayollar mavzusi va uning tasviri hamda ifodasi hech qaysi ijodkor shoir-u yozuvchilar qalamidan chetda qolgan emas, jumladan, Muhammad Yusuf ijodida ham ayollar obrazi alohida ahamiyatga ega. Bilamizki, Muhammad Yusuf ham Abdulla Oripov aytganidek, qalbida allaqanday sohir qush sayrab turgan ijodkordir. Tom ma'noda Muhammad Yusuf ijodida abadiy barhayotlik, zavol ko'rmaslikni ko'rish mumkin. Shoir ijodiy merosida turlicha obrazlar ko'p, biroq ona, ayol, qiz ifoda va tasvirlari o'ziga xos o'rin tutadi. Bu qahramonlar ifoda etilgan she'rlarda milliy madaniyatimizga xos bo'lgan nuqtalar o'ziga xos tarzda ifoda etilgan.

Uxlamaydi tunlari,
Oy nurlari taralgan.
O'zbekning ayollari
Farzand uchun yaralgan.

Yuqoridagi misralardan ko'rib turibmizki, bu misralar o'zbek ayollarining so'z bilan chizilgan surati, negaki, o'zbekning eng yomon onasi ham farzandini o'ylamasdan qolmaydi, eng yomon ayolda ham farzandiga bo'lgan muhabbat qalbining tubida bo'lsa ham balqib turadi. Ona shunday zotki, farzandi uchun har narsaga tayyor, faqat u uchun yaralgandek go'yo. Ona qayga bormasin, nima qilmasin, farzandini bir lahza yodidan chiqarib, faqat o'zi haqida o'ylay olmaydi, u bozorga boradimi, aylangani boradimi, avvalo, birinchi o'rinda, farzandini o'ylaydi, ayniqsa o'zbek onalarida bu fazilat juda kuchli rivojlangan. Buni Muhammad Yusuf o'z she'riyatiga ustalik bilan ko'chirgan. She'r davomida esa o'zbek ayolini alqab turib, uning bir qator fazilatlarini sanab o'tadi:

Mehnat uchun yaralgan
Toqat uchun yaralgan,
Izzat uchun yaralgan.

Mazkur she'r ham o'zbek ayolining qatorlarga so'z bilan chizilgan tasviri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu she'rda ayol obrazi mehnat, sabr, matonat, toqat ramzi sifatida ifodalangan. Muhammad Yusuf ijodida ayolga, onaga bag'ishlangan bir qator she'rlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, "Onaizor", "Onajon", "Onamga", "Onamga xat", "Onajonim" kabilar shular jumlasidandir.

Yetmish yulduz yog'ilib,
Yarim oycha to'lolmas
Yetti yanga bir bo'lib,
Bitta ona bo'lolmas.

Shoirning mazkur she'rida o'ziga xos tashbeh mavjud bo'lib, osmondagi yulduzlar hammasi yig'ilib, butun oy uyoqda tursin, yarimta oyning ham o'rnini bosa olmaydi, ki yettita yanga ham bitta onaning o'rnini bosib, u qilgan ishlarni, u ko'rsatgam mehrni berolmaydi, demoqchi. Soddalik va xalqchil uslubda yozish Muhammad Yusufning o'ziga xos qirradi hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, zamonaviy she'riyatda ayol poetik tasviri yangicha va o'ziga xos usulda adabiyotda qayta yaratilganini yuqoridagi ijodkorlar lirik asarlarida ko'rdik. Xususan, mustaqillik davrida ham ko'zga tashlangan mavzulardan biri ona va qiz obrazi, yoki ayol ruhiyatining zamonga xos ochib berilishi bir qator ijodkorlar nazaridan chetda qolmasdan, adabiyotga o'ziga xos usul olib kirildi, jumladan, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon ijodida, shoiralardan Zulfiya, Halima Xudoyberdiyeva, Zebo Mirzo ijodining mavzu ko'lami ayniqsa, ayol obrazi detallariga yetarlicha to'xtalib, ayol psixologiyasi aniq va ravshan ochib berilgani zamonaviy lirikaning yutug'i hisoblanadi. Shunday ekan, ayollar mavzusini o'ganish ham adabiyotshunoslikda tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 20.
2. Акромов Б. Оламнинг бутунлиги. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988–Б.99.
3. Адабиёт назарияси. Икки томлик. – Тошкент: Фан, 1978. – Т.1. – 416 б; 1979. –Т.2. – 445 б.
4. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. 560 б.
- 5.. Даврон Хуршид. Баҳордан бир кун олдин. - Тошкент: Шарқ, 1997. Б.18.
6. Потебня А.А. Эстетика и поэтика – Москва: Наука, 1976. – С. 175-176.
7. Поспелов Г.Н. Вопросы методологии и поэтики. – Москва: Изд-во МГУ, 1983. – С. 42-43
8. Manba <https://tafakkur.net/sizga/zebo-mirzo.uz>
9. Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati., Toshkent., 2003., 306-b.
10. Ibrohim G'afurov. Xalq so'zi, 2019-yil, 22-fevral soni.
11. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/halima-xudoyberdiyeva-eng-qora-isheng-toza-ish-bizning-ishimiz.html>
12. Bahodir Karim. Adabiy fikr javhari. www.kh-davron.uz



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMBORXONA XO'JALIGI XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH.

Murodjon Akbaraliyevich Xaydarov

Andijon mashinasozlik instituti

"Transport logistikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi
(tel:+99877-070-44-51) murodjonxaydarov77@gmail.com

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Ombor, Avtomobil, Yuk avtomobillari, Yo'l, Vaqtincha saqlash joylari, ombor xo'jaligi Taqsimlash logistikasi, Ombor maydoni.

Ko'rsatilgan ishlarni omborda bajarish texnologiyasi yukning xususiyatiga (donalab sotiladigan, sochiladigan), transport vositasi turiga (treylar, konteyner va boshqalar), shuningdek qo'llaniladigan mexanizatsiya turlariga bog'liq holda yukni tartibli saqlash va tejamkorlik bilan joylashtirish uchun omborxonada manzilli saqlash tizimi mo'ljallaniladigan joy tanlash va qat'iy (qayd etilgan joyda) yoki ixtiyoriy (yuk bilan qanday bo'sh joyda joylashtirilishi mumkin) qoidalari haqida bayon etilgan.

Ombor yoki omborlar majmui xizmat ko'rsatish infrastrukturasi bilan birgalikda ombor xo'jaligini tashkil etadi. Sanoat korxonasida ombor xo'jaligining asosiy vazifasi sanoatning tegishli moddiy resurslar bilan to'g'ri oziqlanishini, ularning saqlanishini tashkil etish va omborxonada amaliyotlarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni imkon boricha qisqarishdir. Logistika tizimida omborlarning ahamiyati va o'rnini.[1]

Omborlar logistika tizimining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi. Logistik tizim omborlarga bo'lgan tashkiliy va texnik-iqtisodiy talablarni shakllantiradi, omborlar tizimining maqsadini va eng maqbul ishlash mezonini belgilaydi, yuklarni qayta ishlash shartlarini aniqlaydi. O'z navbatida, materiallarni omborga joylashtirishni tashkil etib (omborni joylashtirishga joy tashlash, maxsulotlarni saqlash usullari va boshqalar) zaxiraning logistika tizimining turli xil ishlarida aylanishi bilan bog'liq xarajatlarga, miqdoriga va harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. [2]

Logistikada omborlar ham ijobiy, ham salbiy ahamiyatga ega. Omborda saqlashning salbiy tomoni shundaki, zaxiralarni omborda saqlash bilan bog'liq xarajatlar hisobiga tovar narxi oshadi. Bu omborga joylashtirish amaliyotlariga sarflanadigan xarajatlar, omborxonani ijaraga olish, omborlarni tartibda saqlash bilan bog'liq xarajatlar.

1. Iste'molchilar buyurtmasiga muvofiq tegishli assortimentni yaratish. Sotib olish va ishlab chiqarish logistikasida mazkur vazifa ishlab chiqarishning turli bosqichlarini kerakli moddiy-texnika resurslari bilan (sifati va soni bo'yicha) ta'minlashga qaratilgan.

Taqsimlash logistikasida mazkur vazifa maxsus ahamiyatga ega. Sotuv omborlari ishlab chiqarish assortimentini mijozning buyurtmasiga muvofiq

iste'mol assortimentiga aylantiradi. Omborda kerakli assortimentni yaratish iste'molchilar buyurtmasini samarali bajarishga va mijozlarga kerakli hajmda tovarlarni tez tez yetkazib berishga yordam beradi. [3]

2. Omborga joylashtirish va saqlash. Mazkur vazifaning bajarilishi mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'mol qilish orasidagi vaqtinchalik tafovutni baravarlashga, yaratilgan zaxiralar asosida ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz bo'lishiga va iste'molchilarning beto'xtov mahsulot bilan ta'minlanishiga imkon beradi. Ayrim tovarlar mavsumga qarab iste'mol etilishi sababli ham tovarlarni taqsimlash tizimida saqlashga zarurat bor.

3. Jo'natishga mo'ljallangan bir to'da tovarlarni birlashtirish va yuklarni transportda jo'natish. Iste'molchilarning aksariyati omborlardan vagonga yoki treylarga sig'adigan miqdordan ancha kam tovar oladilar, bu esa o'z navbatida bunday tovarlarni yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni ancha ko'paytiradi. Transport xarajatlarini kamaytirish uchun omborxonada transport vositasini yuk bilan to'ldirish uchun bir nechta mijozlarning katta miqdorda bo'lmagan yuklarini birlashtirish vazifasini bajarishi mumkin.[4]

4. Xizmat ko'rsatish. Iste'molchilarga yuqori darajada xizmat ko'rsatish maqsadida omborlar mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatishlari mumkin: tovarlarni sotuvga tayyorlash (mahsulotni qadoqlash, konteynerlarni (maxsus idishlarni) to'ldirish, tovarlarni o'ramidan ochib olish va boshqalar); asboblarni ishlashini tekshirish, yig'ish; mahsulotni sotuvga tayyorlash; transportda jo'natish xizmatlari va boshqalar. Omborda texnologik jarayonni tashkil qilish omborga joylashtirish amaliyotlarini tavsiflash. Omborga invlashtirish amaliyotlari quyida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi:

- yuklarni tushirish va qabul qilish;
- saqlash uchun joylashtirish (tovarlarni tekislab stellajlarga joylash);
- tovarlarni butlash va transportga ortish;
- yuklarni ombor ichida transportlarga ortish. (yuklarni tushirish va qabul qilish tuzilgan shartnoma shartlari) asosan amalga oshiriladi. [5]

Ko'rsatilgan ishlarni omborda bajarish texnologiyasi yukning xususiyatiga (donalab sotiladigan, sochiladigan), transport vositasi turiga (treylar, konteyner va boshqalar), shuningdek qo'llaniladigan mexanizatsiya turlariga bog'liq. Qabul qilish jarayonida yetib kelgan yuklarning amaldagi o'lchamlarini joylarga qo'shib yuborilgan hujjatlar bilan solishtirish, yetib kelgan yuklarni axborot tizimi orqali rasmiylashtirish va omborxonada vaqt birligini shakllantirish amalga oshiriladi. Soni va sifatiga qarab qabul qilingan yuk omborning saqlash joyiga ko'chiriladi. Saqlash jarayoni saqlash uchun tegishli omillar ta'minlanishini va omborda mavjud zaxira ustidan nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Yukni tartibli saqlash va tejamkorlik bilan joylashtirish uchun omborxonada manzilli saqlash tizimi mo'ljallaniladi, joy tanlash qat'iy (qayd etilgan joyda) yoki ixtiyoriy (yuk bilan qanday bo'sh joyda joylashtirilishi mumkin) qoida. Ixtiyoricha amalga oshiriladi. Butlash jarayonida tovarlar iste'molchilar buyurtmasi bo'yicha tayyorlanadi. Butlash

jarayoni mijozlar buyurtmasiga muvofiq joylarni tanlashni, tovarlarni jo'natishga tayyorlashni (maxsus idishlarga joylashtirish), jo'natishga mo'ljallangan alohida buyurtmalarni boshqa tovarlar bilan birlashtirishni va transport yuk xarajatlarini rasmiylashtirishni, yukni transport vositalariga ortishni o'z ichiga oladi. [6]

Yuklarni ombor ichida transportlarga ortish deganda yukni omborning turli dahalari orasida joyini o'zgartirish tushuniladi: yuk tushirish maydonchasidan qabul qilish dahasiga, u yerdan saqlash, butlash, yuk ortish dahasiga. Yuklarni ombor ichida transportlarga ortish ishlari ikki tomoni ochiq to'g'ri yo'llarda amalga oshirilishi kerak. Bu o'z navbatida omborning har qanday dahasiga qaytadan kelishning va amaliyotlar samarasiz bajarilishining oldini oladi. Yukning bir uskunadan boshqasiga o'tkazish soni eng kam bo'lishi kerak. Sanoat korxonalarini omborlari ishini tashkil etish. Korxonada omborlarning amaliy-ishlab chiqarish faoliyati omborxonaga kelgan materiallarni va mahsulotlarni tushirishni, saralashni va qabul qilishni, ularni joylashtirishni va saqlashni, shuningdek iste'molchilarga berishni va jo'natishni o'z ichiga oladi. Yuklarni moddiy omborlarga yetkazish zavod rejasiga muvofiq amalga oshiriladi. Omborga materiallarni va mahsulotlarni qabul qilish texnik hujjatlarda va yo'riqnomalarda bayon etilgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi.[7]

Materiallarni va mahsulotlarni ombordan berish bilan bogliq amaliyotlar tanlashni, butlashni hamda materiallarni tegishli ravishda tayyorlashni o'z ichiga oladi. Materiallardan ishlab chiqarishda foydalanishga tayyorgarlik ularni tozalashni, yarim mahsulotlarga kesishni, taxtalangan materiallarni bichishni va boshqalarni o'z ichiga oladi. [8]

Omborga mahsulotlarni qabul qilish va joylashtirish. Omborga joylashtirish shaklining tanlanishi omborga egalik qilish masalasining hal bo'lishi bilan bog'liq. Ombor tanlashda ikkita yo'li bor: omborga egalik qilish, yoki umumiy omborlardan foydalanish.[9]

Xarid qiluvchi va taqsimlovchi logistikada (birinchi navbatda kichik partiyalar (to'plamlar) orqali tez-tez yetkazib berish shartini bajarish qat'iy kafolatlangan hollarda) ko'pgina korxonalar iste'molchilarga yonida yaqinlashgan umumiy omborlardan foydalanib qolishga intiladilar. Umumiy foydalaniladigan omborlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ombor xo'jaligini rivojlantirishga mablag;
- ombor xo'jaligini rivojlantirishga mablag' sarflash talab etilmaydi;
- moliyaviy xavf-xatarlar qisqaradi;
- ombor hududidan foydalanishga o'zgartirishlar kiritish mumkin (ijara maydonini va muddatini o'zgartirish imkonini);
- omborni muvofiq darajada ushlab turishga va zaxiralar saqlanishiga ma'suliyat pasayadi.[10]

Omborlar soni haqida qaror qabul qilinganda, korxonalar tovar aylanishi bilan bog'liq umumiy xarajatlar miqdorini kamaytirish sharoitlaridan kelib chiqishi kerak.

Ombor maydonini hisoblash. U yoki bu ombor binosini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich - bu omborning umumiy maydoni o'lchamidir. Omborning umumiy maydoni quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

- yuklarga mo'ljallangan yoki foydali maydoncha bevosita moddiy boyliklar yoki ularni saqlashga mo'ljallangan uskunalardan bilan band qilingan;
- amalga oshiruvchi maydoncha - bu qabul qilish, saralash, butlash va tovarlarni chiqarish maydonchalari, shuningdek, shtabellar va stellajlar bilan band;
- konstruktiv maydoncha to'siqlar, ustunlar, narvon va h.k. lar bilan band;
- xizmatda foydalanish uchun maydoncha idora va maishiy xonalar uchun band qilingan.

Omborlar faoliyatini baholash amaldagi omborlar faoliyatini baholash. shuningdek, qurilayotgan va qayta qurilayotganlardan ko'proq naf keltiradiganini tanlash quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish joizki, jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida globallashtirishning amalga oshirilishi sharoitida transport tizimi ishini eng maqbul tarzda tashkil etish, uning faoliyati samaradorligini tahlil etish, baholash va rivojlanish istiqbollari belgilashni logistik tizimli yondashuv asosida amalga oshirish zarur.

Xalqaro mehnat taqsimoti, kooperatsiyasi va integratsiyasi jahonda bir qancha transmilliy korporatsiyalarni vujudga kelishiga turtki bo'lgan. Ular o'z faoliyatlarini amalga oshirishda global logistik zanjirlar va kanallardan foydalanadilar. Ushbu sharoitlarda, davlatlar orasidagi logistik kanallarni yaratilishiga xalqaro transport ekspeditorlik firmalari, infratuzilmalar va global telekommunikatsiya tarmoqlari yordam beradi. Innovatsion jarayon innovatsion faoliyatga nisbatan keng ma'noga ega bo'lib, u quyidagilar bilan belgilanadi: innovatsion jarayon ilmiy-tadqiqot, ilmiy-texnikaviy yangiliklarni ishlab chiqarishga tatbiq etish; innovatsion jarayon investitsiyalashtirish jarayoniga nisbatan qo'llanilishi jihatidan qisqa muddatli, ya'ni ilmiy fikr va mulohazalarning shakllanishidan, uni amalga oshirish va tatbiq etish davrini o'z ichiga qamrab oladi.

Innovatsiya ilm-fan va texnika taraqqiyoti bo'yicha ma'lum bir yangilik, kashfiyotlarni yaratish yoki mavjud ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan resurslardan foydalanishni takomillashtirish; doimiy ravishda yangiliklar izlash, bozor talablariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash va mehnatni tashkil etish usullaridan foydalanish; bozor iqtisodiyoti sharoitida innovatsion investitsiya

mablag'laridan foydalanish bozor subyektiv ixtiyorida bo'lib, innovatsion faoliyatni tashkil etish darajasiga bog'liq bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. угли Рахимов, Р. Р. (2022). МОДЕЛИРОВАНИЕ ПРОЦЕССА ВЫБОРА ОПТИМАЛЬНОГО ТИПА ПОДВИЖНОГО СОСТАВА ДЛЯ ПЕРЕВОЗКИ МЕДИКАМЕНТОВ ПОТРЕБИТЕЛЮ. *Journal of new century innovations*, 18(5), 109-120.
2. ўғли Раҳимов, Р. Р. (2022). ТАШИШДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ СИФАТ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ БАҲОЛАШ. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 656-663.
3. Raximov, R. (2023). AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO 'RSATUVCHI USTAXONASINI JORIY ERISH AFZALIKLARI. *TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI*, 1 (1), 280-290.
4. Raximov, R., & Daminov, D. (2023). TRANSPORT VOSITALARI DETALLARI RESURSLARINI KOMPYUTERDA HISOBLASH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 2(2), 75-82.
5. Sohijjon o'g'li, SJ, & Rafuiqjon o'g'li, RR (2023). TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TOSHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. *TADQIQOTLAR*, 25 (1), 79-83.
6. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o'g'li, & Solimuhhammadov Jamshidbek Sohijjon o'g'li. (2023). LOGISTIKA TIZIMING TRANSPORT TOSHQIL ETUVCHISI. *TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI*, 7 (7), 27-33. <https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/546> dan olindi.
7. Raximov Raxmatullo Rafuiqjon o'g'li, & Solimuhhammadov Jamshidbek Sohijjon o'g'li. (2023). TRANSPORTDA LOGISTIKA XARAJATLARINI VA TARIFLARNI SHAKLLANTIRISH. *BUTUN DUNYO ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 2 (2), 106-114. <https://esiconf.com/index.php/TOSROWW/article/view/543> dan olindi
8. Rafuqjon, R., & Rahimov, O. L. (2022). Avtomobil Transportida Tashuv Ishlarini Amalga Oshirishda Harakat Xavfsizligini Ta'minlash Uslublarini Takomillashtirish Yo'llari. *Образование И Наука В Ххи Веке*, 750-754.
9. Raximov, R. ., G'ulomova, Z. ., & G'ulomov, I. . (2023). SHISHA ISHLAB CHIQRISH VA UNI KLASIFIKATSIYASI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 1(2), 9-15. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/9865>
10. угли Рахимов, Р. Р. (2022). Процесс электролитического осаждения хрома на поверхности деталей.



BADIIY BEZAK SAN'ATI MASHG'ULOTLARIDA BADIIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

S.A.Abdusalolov

I. A. Xodjayeva

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

tasviriy san'at, musavvir, amaliy bezak san'ati, pedagogik kompetentlik, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari

Jahon amaliyotida tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirishda grafik bilimlar, ob'ektlarning funksional va konstruktiv o'ziga xosligini bilishga asoslangan ko'nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo'llash, grafik kasbiy yo'nalganlik va faoliyat tajribasi, grafik axborot texnologiyalari bo'yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy-pedagogik faoliyat, uning ahamiyati va muayyan san'at masalalarga munosabat, tasviriy san'at o'qituvchisi yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korreksion mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at yo'nalishida o'qituvchilar tayyorlaydigan davlat talim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida kasbiy grafik kompetentlikni rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda tasviriy san'at ta'limi samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilib, ta'lim mazmunini loyihalash, kasbiy grafik kompetensiyalarni tuzilmalarga ajratish, o'qitishning yangi metodik modellarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida qo'llashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilaridan kasbiy grafik bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va ularni ta'lim jarayonida qo'llash talab etiladi. Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash va rivojlantirish jarayoni qonuniyatlari va tendensiyalari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djurayev, A.R.Xodjaboyev, N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, Q.T.Olimov, O'.Q.Tolipov, M.B.Urazova, R.G.Isyanov, N.N.Azizxodjaeva, D.O.Himmataliyev, J.A.Hamidov, O.A.Qo'ysinov, B.A.Nazarova, Sh.N.Muslimov kabilar tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlari olimlari L.V.Antropova, I.R.Absalyamova, V.I.Baydenko, I.E.Bryakova, V.P.Bespalko, A.A.Verbitskiy, A.D.Grigorev,

I.F.Isaev, E.F.Zeer, L.V.Kolyasnikova, S.N.Mironenko, A.V.Xutorskoy, V.A.Slasyonin va boshqalar kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha izlanishlar olib borgan.

E.P.Vox, G.A.Galenyuk, S.V.Jilich, G.M.Klochkova, T.K.Musalimov, T.P.Petlina, A.V.Petuxova, N.V.Fedotova, A.Abduraxmonov, I.R.Absalyamova, D.F.Ko'chkarova, Sh.K.Murodov, U.A.Nasritdinova, T.Rixsiboyev, D.C.Saidahmedova, S.S.Saydaliyev, A.K.Xamraqulov, Ch.T.Shokirovalarning ilmiy ishlarida bo'lajak mutaxassislarining aynan grafik tayyorgarligi va grafik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish muammolari tadqiq etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Xorijlik olimlar Anjela Stof, Benjamin Blum, Brayan Kol, Drapeau Patti, Jaslin Golberg, Merriembar Jeron pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, kompetentligi va kasbiy-pedagogik salohiyatini rivojlantirish muammolariga doir tadqiqotlar olib borgan. "Kompetentlilik" psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda professional faoliyatning ma'lum turlari bilan bog'liq sifatlarga ega bo'lishni bildiradi. S.I.Ojegovning izohli lug'atida "xabardorlik, bilganlik, biror sohada obro'-e'tibor qozonish"ni anglatadi. Shuningdek, L.Xell va D.Zigler kompetentlilikka "psixosotsiologik sifat bo'lib, kuch va ishonchni bildiruvchi, o'z ishining muvaffaqiyatli va foydali ekanligidan kelib chiqqan tuyg'u bo'lib, insonga uning atrofida bilganlari bilan hamkorlikda samarali harakat qilishi mumkinligini anglatadi", deya ta'rif berganlar.

N.A.Muslimov va boshqalar kompetentlilikni quyidagicha ta'rifladilar: "...faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish".

Yu.E.Rahimovanning ta'kidlashicha, "Kasbiy kompetentlilik – bu integrativ tavsif bo'lib, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsga oid fazilatlarni ifodalaydi, ular bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi". "Bitiruvchini tayyorlash modeli nafaqat bitiruvchining bilim, ko'nikma va malakalar tizimi bilan belgilanuvchi kasbiy kvalifikatsiyasini, shuningdek, zamonaviy xalqaro amaliyotda tayanch kompetensiyalar deb tavsiflanuvchi shaxsga oid sifatlarni va tizimli shakllantirilgan universal mahorat va qobiliyatlarni ham o'z ichiga oladi".

Tasviriy san'at insonning his-tuyg'ulari va qobiliyatlarini tashqariga chiqarishga yordam beradigan turli xil shakllarga ega. Rassomlik orqali keng qadrlanadi Vizual ko'nikmalar nozik ishchi kuchi uchun zarurdir. Maktab ta'limida tatbiq etilayotgan bu san'at o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda hamda umumiy shaxsni shakllantirishda yordam beradi. Talabalar, sahna san'ati ularning psixologik, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini yaxshilash bilan birga fundamental fikrlashda yordam beradi.

Hindistonda bir nechta maktab-internatlar mavjud bo'lib, ular o'zlarining ta'lim o'quv dasturlariga tasviriy san'atni joriy qilganlar, boshlaganlar, chunki bu o'quvchilarning umumiy takomillashuviga foyda keltiradi. Shunday qilib,

tasviriy san'at bo'yicha ta'lim o'quvchilarni mustahkam kelajak uchun jihozlash yo'lidir.

NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 20 apreldagi 2909 "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar etarli darajada olib borilmayapti.

Zamonaviy o'qituvchilarni tayyorlash sifati zamonaviy ta'limning asosiy yo'nalishi bo'lib, butun o'quv jarayoniga va uning alohida tarkibiy qismlariga yuqori talablarni qo'yadi. Talabalarni o'z-o'zini rivojlantirish uchun ta'lim maqsadlarining o'zgarishi, sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga o'tish va bilimlarni o'zlashtirishda mustaqillik rolining kuchayishi kasbiy kompetensiyalarni egallashda ta'lim motivatsiyasining rolini oshiradi. Bu, o'z navbatida, kognitiv qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlarni takomillashtirish bilan bir qatorda, mas'uliyat, mustaqillik va yaxshi tashkiliy tabiat kabi bu jarayonning muvaffaqiyatini belgilaydi. Talabalarning ta'lim motivatsiyasiga bag'ishlangan ko'plab ishlarga qaramay, bu masalada hali ham to'liq yakdillik mavjud emas. Bu, ayniqsa, ichki motivatsiyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'siri, uning harakat mexanizmlari, shuningdek, uni qanday boshqarishni tushunish uchun to'g'ri keladi. Talabalarning ta'lim motivatsiyasi darajasini oshirish muammosini hal qilishning asosiy masalalaridan biri uni rivojlantirish uchun mos usul va texnologiyalarni tanlashdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, faqat an'anaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu muammoni samarali hal qilishga imkon bermaydi. Shu nuqtai nazardan, badiiy pedagogika muvaffaqiyatga erishish va o'quvchi shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish bilan bog'liq motivlarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratishga qaratilgan maxsus texnologiya sifatida istiqbolli yo'nalish bo'lib ko'rinadi.

